

H.NURMATOV, N.NORXO‘JAYEV

MUSIQA

1-SINF UCHUN DARSLIK

Qayta ishlangan 17-nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2019

Taqrizchilar:

D. Karimova – TDPU boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat fakultetining musiqa ta'limi kafedrası dotsenti;

R. Xudoyorova – Toshkent shahar Sirg'ali tumanidagi 300- ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktabining musiqa madaniyati fani o'qituvchisi;

V. Gapparova – Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 203-umumta'lim maktabining musiqa madaniyati fani o'qituvchisi;

Z. Zokirova – Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 17-umumta'lim maktabining musiqa madaniyati fani o'qituvchisi.



– Ustozingiz ijrosida tinglang!



– Ustozingiz yordamida kuylang!



– Musiqa savodi



– Dars tugadi

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi
mablag'lari hisobidan chop etildi.**

Nurmatov H., Norxo'jayev N.

Musiqa: 1-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 17-nashri. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 64 b.

UO'K 78 (075)
KBK 85.31ya71

ISBN 978-9943-5548-2-5

© **Nurmatov H.**, Norxo'jayev N.
© G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-
matbaa ijodiy uyi, 2019



QO'SHIQ AYTISH QOIDALARI

Qo'shiqni to'g'ri ijro etish uchun uni diqqat bilan tinglab olish lozim.

Qo'shiqni qomatni rostlagan holda tik turib yoki o'tirib aytish kerak.

Qo'shiq aytishdan oldin shoshilmasdan nafas olish va yelkalarni ko'tarmaslik kerak.

So'z o'rtasida nafas olmang.

Qo'shiqda so'zlar aniq eshitilishi uchun unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz etish kerak.

Qo'shiq aytganda tovushingiz yengil va chiroyli eshitilsin. Tovushlarni cho'zib ayting.

Qo'shiqni ifodali, tinglovchilarga yoqimli qilib aytish kerak.

Qo'shiqni o'qituvchining qo'l harakatlariga qarab aytishga o'rganing.

VATANJONIM – VATANIM



P.Mo'min

she'ri

D.Omonullayeva

musiqasi

O'rtacha tez



Vatanjonim – Vatanim,
Ko'zim quvnab ko'rganim.
Istiqloldan kulganim,
O'zbekiston – gulshanim!

Bahra olib bag'ringdan,
Ulg'ayaman mehringdan.
Vatanjonim – Vatanim,
O'zbekiston – gulshanim!



TOVUSHLARNING IFODALANISHI

AU DEGANDA TOVUSH PAST-DAN YUQORIGA CHIQADI.



A



U



O



I



Ye





ANDIJON POLKASI

Xalq kuyi

Sho'x





QANDAY TOVUSHLARNI BILASIZ?

Shovqinli tovushlar



Atrofimizda tovushlar juda ko'p. Tabiatdagi barcha tovushlar shovqinli tovushlarga kiradi.

Musiqiy tovushlar



Qo'shiq kuylashda va cholg'u sozlari-
 ni chalishda yangraydigan tovushlar musiqiy tovushlar deyiladi.

NOTA YO'LI

Musiqqa tovushlari nota bilan yoziladi.
Notalar yoziladigan beshta chiziqqa
NOTA YO'LI deyiladi.


YURISH MARSHI

F.Nazarov musiqasi

Jadal



Ayting-chi, koptokchalar qaysi chiziq-
larda joylashgan?



ANJIR



P.Mo'min

she'ri

D.Omonullayeva

musiqasi



I
Anjir qiziqdir o'zi,
Lekin bittadir ko'zi.
Aytaqolay oldindan,
Rangi qolmas oltindan.

II
Pishsa o'zi-o'zidan,
Asal tomar ko'zidan.
Maza qilamiz axir,
Kuzda yeganda anjir.



MILLIY CHOLG'ULAR BILAN TANISHING



DOIRA



NOG'ORA



BAK, BAKA BUM, BUM (DOIRA USULLARI)

O'ynoqi

Xalq kuyi



OLMA



P.Mo'min
she'ri

D.Omonullayeva
musiqasi

Olmani qarang,
Olmani qarang,
Yuzlari tarang.
Shoxda qaltirar,
Shoxda qaltirar,
Rangi yaltirar.

Ketmas uzilib,
Ketmas uzilib,
Turar tizilib.
Kim olma yesa,
Kim olma yesa,
Maza-yu maza!



MUSIQANING ASOSI KUYDIR.



DILXIROJ

O'zbek xalq kuyi

Chaqqon



LAVLAGI



P. Mo'min

she'ri

D. Omonullayeva

musiqasi


O'rtacha tez



Lav-la-gi-yu, lav- la-gi, yer-ni as- ta kav- la-gin.



Mo'l bo'-lib-di ho- si- li, a'-lo e-kan qi- zi- li.



Lo- la-ga o'x- shar, qip-qi- zil ran- gi.




Xud-di bo'-yal-gan-day yap- yan- gi... gi.

Lavlagi-yu, lavlagi,
Yerni asta kavlagin.
Mo'l bo'libdi hosili,
A'lo ekan qizili.

Lolaga o'xshar,
Qip-qizil rangi.
Xuddi bo'yalganday
Yap-yangi.



**MUSIQIY TOVUSHLAR YUQORI,
PAST VA BIR TEKIS BALANDLIKDA
BO‘LADI.**



MUSIQALI O'YINLAR

QO'SHIQ AYTIB O'YNALADIGAN O'YINLARGA MUSIQALI O'YINLAR DEYILADI

OQ TERAQMI, KO'K TERAQ?



X.Qayumov she'ri **A.Mansurov** musiqasi

Sho'x



Oq te-rak- mi, ko'k te- rak, biz-dan siz-ga kim ke- rak?



O'-qi-shi, i- shi a'- lo, G'ay-rat-li, chaqqon, do-no.



Kat-ta-lar-ning dast-yo-ri, Ki-chik-lar-ning sar-do-ri,



O-dob, ax-loq-da o'r-nak, quv-noq bo-la-lar ke- rak.



QUYONIM

Shoshilmay

O'zbek xalq o'yini

Qu- yo- nim, qu- yo- nim, ni- ma bo'l- di,
Ka- sal- ga o'x- shab o'- ti- rib- san?
Tur o'r- ning- dan, o'y- nab ber,
Xoh- la- ga- ning- ni tan- lab ber.

Quyoningim, quyoningim, nima bo'ldi,
Kasalga o'xshab o'tiribsan?
Tur o'rningdan, o'ynab ber
Xohlaganingni tanlab ber.



SKRIPKA KALITI

Skripka kalitining aylanma qismi nota yo'lining ikkinchi chizig'ini qamrab oladi. Ikkinchi chiziqqa SOL tovushi yoziladi. Bu kalit SOL kaliti deb ham ataladi. Skripka kalitini chiroyli yozishga o'rganing.





BIR, IKKI, UCH...

Rauf Tolib she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Marsh tempida

Do'p- do'p, do'p-do'p, Do'p-do'p, do'p-do'p, Shax-dam, shax-dam
tash - lang qa- dam, bir, ik- ki uch. Do'p-do'p, do'p-do'p,
Kuch-ga to'-ling sog'-lom bo'-ling, bir ik- ki, uch.
Do'p- do'p, do'p- do'p, Shax- dam, shax - dam
tash- lang qa-dam, bir, ik- ki, uch. Do'p-do'p, do'p-do'p
Kuch-ga to'-ling, sog'-lom bo'-ling, bir, ik- ki, uch.
Do'p - do'p, do'p- do'p, Bir, ik - ki, uch.



KUZ

N.Ro'zimuhamedov she'ri
S.Abramova musiqasi



Shoshmasdan

Ke-lib yet-di jav-har kuz, San-diq och-di gav-har kuz.

Bog'-lar- ning sa-xo- va-ti, So-chil-di noz-

-ne'-ma - ti. Bog'-lar - ning sa - xo - va - ti,

So - chil - di noz- ne' - ma - ti.

Xil-xil pishdi nok, gilos,
Ochildi paxtamiz soz.
Ochildi paxtamiz soz,
Paxtamiz, jon paxtamiz.



VATANIMIZNI MADH ETAMIZ

VATANGA BO'LGAN MEHR VA MUHABBAT CHEKSIZ BO'LISHI KERAK



«RAQS»

Nadim Norxo'jayev musiqasi

O'rtacha tez



BUG'DOY



R. Tolib she'ri **D. Omonullayeva** musiqasi

Ekkan edim,
Ko'kat bo'ldi, don bo'ldi.
Pishgandan so'ng
Oppoqina non bo'ldi.


Elim boy, elim boy,
Nimaga boy?
Elim boy, elim boy,
Ekar bug'doy.



TOVUSHLAR BALAND-PASTLIGINING ZINACHALARDA IFODALANISHI



**TOVUSHLAR NOMINI CHAPDAN
O'NGGA VA O'NGDAN CHAPGA
QARAB AYTISHGA O'RGANING**



TANISHING



**Bastakor musiqa
bastalaydi.**



Shoir she'r yozadi.



**Xonanda qo'shiq
kuylaydi.**



**Sozanda kuy
chaladi.**

PIANINO



M.Zaynitdinova she'ri
J.Najmiddinov musiqasi

O'ynoqi



Bir, ikki, uch, o'ng oyoq,
Ohangga soling quloq.
Yangroq kuyga jo'r bo'lib
Qo'shiq aytamiz quvnoq.



**QO'SHIQ SO'Z VA OHANGLARDAN
IBORAT. SO'Z HARFLAR BILAN, OHANG
ESA NOTALAR BILAN YOZILADI.**



ALIFBO BAYRAMI

P.Mo'min she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi

- | | |
|---|---|
| 1. Alifbodan
Harflarni
Biz o'rgandik
oz-ozdan.
Minnatdormiz
O'rgatuvchi
Muallimdan –
ustozdan. | 2. Har bir harf
Daftarlarda
Gijinglaydi
toy bo'lib.
Yozganimiz
Ko'rinadi
Yulduz bo'lib,
oy bo'lib. |
|---|---|

Naqarot:

Tilimizni
Sayratadi
Alifbomiz bayrami.
Dilimizni
Yayratadi
Bayramlarning
xurrami.

Naqarot

3. Oldimizga
Saf tortishdi
Askarlarday harflar.
Barchasiga
Qo'shiqlarda
Berib o'tdik ta'riflar.

Naqarot



BIZ YOQTIRGAN QO'SHIQLAR

ARCHA BAYRAM



Po'lat Mo'min she'ri Nadim Norxo'jayev musiqasi

O'rtacha



Ham - ma - ni ham e - tar xur - ram Bar - cha bay - ram,




bar - cha bay - ram. Ro - sa, ro - sa e - tar xur - ram



Ar - cha bay - ram, ar - cha bay - ram. Bo'l - sa ham - ki,



bo'l - sa ham - ki qan - cha bay ram, qan - cha bay ram,



Eng yax - shi - si, eng yax - shi - si




ar - cha bay - ram, ar - cha bay - ram.

Mustahkamlash uchun topshiriqlar


Diqqat bilan tinglang va toping:

O'qituvchi quyidagi ikki misoldan qaysi birini aytdi?



Sol kaliti qayerda to'g'ri yozilgan?

1



2



3




Sol notasi qayerda to'g'ri yozilgan?

1



2




3



TOVUSHLARNING UZUN-QISQALIGI

Butun nota



Butun notani butun mevalarga o'xshatish mumkin.



NORIM-NORIM

O'zbek xalq kuyi

O'rtacha tez



QO'SHIQ AYTGANDA SO'ZLARNING ANIQ VA TUSHUNARLI BO'LISHIGA E'TIBOR QILING

BIRINCHI QOR

R.Tolib she'ri

N.Norxo'jayev musiqasi

Ey qor, shodsan buncha ham,
Axir erib ketasan.
Voy, voy, voy, voy.

Men sizlarga bir olam
Quvonch berib ketaman.
Hoy, hoy, hoy, hoy.



BIZ YOQTIRGAN KUYLAR

MUSIQANI TINGLAB, UNGA
CHAPAK BILAN JO'R BO'LAMIZ.



QARI NAVO

Sho'x

O'zbek xalq kuyi



O'QISHNI BILIB OLSANG




M. Yusupov she'ri **M. Dadaboyev** musiqasi

O'qishni bilib olsang
Juda yaxshi o'zingga.
Bolday shira kiradi
Har bir aytgan so'zingga.

Kitoblar kulib boqar
Sho'x, o'ynoqi ko'zingga.
Gullar poyandoz bo'lar
Bosgan har bir izingga.

O'qimishli kishilar
Aqllidir, donodir.
O'qib bilimli bo'lsang,
Barcha ishing a'lodir.





BASTAKORLAR



**YUNUS
RAJABIY**



**G'AFUR
QODIROV**




**DONI
ZOKIROV**




**TO'LQIN
TOSHMATOV**



TOVUSHLARNING NOMLANISHI VA ULARNING KETMA-KETLIGI



TOVUSH QATORLARNING YUQORILASHIB VA PASTLASHIB BORISHI





ASP BO'LAMAN

O'zbek xalq kuyi

O'ynoqi


The musical score is written for a piano in 8/8 time, featuring a treble and bass staff. The key signature has two sharps (F# and C#). The score consists of four systems of music. The first system begins with a mezzo-forte (mf) dynamic marking. The second system includes a forte (f) dynamic marking. The score concludes with a double bar line. A large, faint watermark reading 'h+music' is visible diagonally across the page.

DILOROMNING QO'SHIG'I



I. Donish she'ri D.Omonullayeva musiqasi

Chaqqon



Quv-noq xush o- voz, Jaj- ji Di- lo- rom.



Qo'-shi- g'i dil- ga Baxsh e- tar o- rom.



A-yam va da- dam Bo'l-sin- lar bar- dam,




Dun-yo tur-gun- cha Tur- sin- lar har dam.

2. Bog'chamizda u
Barchaga yoqqan
Yosh qalbi jo'shib
Daryodek oqqan
Qo'shiq sevmalar
Yo'qdir olamda,
Men katta bo'lsam
Bo'lay xonanda

3. Kuylar Dilorom
Xushchaqchaq bardam
Dunyoda ozod
Bo'lsin har odam
Qalb ovozimni
Tinglasin olam,
Tinglasin dadam,
Tinglasin olam.



YARIM NOTA



Butunning ikkidan biri yarim bo'ladi.



Olma o'rtasidan bo'linsa, ikkita teng yarim palla hosil bo'ladi.


**HAR BIR QO'SHIQNI OVOZDA
KUYLASH VA TURLI CHOLG'ULARDA
IJRO ETISH MUMKIN.**

DO'LONCHA



Xalq kuyi

O'ynoqi





NEVARALAR QO'SHIG'I

S.Barnoyev she'ri **N.Norxo'jayev** musiqasi

Bog'im bor, gulzorim bor,
Bosh bog'boni bobomlar.
Shirin so'zli, beozor
Mehribonim momomlar.

N a q a r o t:
Nevara, evara, chevaramiz,
Bizlar uyning chevarimiz.


Ostonamiz muqaddas,
Ahil ota-onamlar.
Oftob nuri tugamas,
Havas qilar odamlar.

N a q a r o t:
Niyatimiz pok, nurli,
Shundan bizlar g'ururli.
Bobo, momolar bilan,
Yashash qanday sururli!

N a q a r o t:



CHORAK NOTA



Butunning to'rtidan biri chorak bo'ladi.



**Qovunni to'rtga bo'lsak, har
bir bo'lagi chorak bo'ladi.**



VALS

D.Shostakovich musiqasi

Jadal



BOBOQ XO'ROZ




P.Mo'min she'ri **N.Norxo'jayev** musiqasi

Sho'x

Bo-boq xo'-roz, bo-boq xo'-roz, To- ji qi- zil
ta-roq xo'-roz. Bo-boq xo'-roz, bo-boq xo'-roz,
To- ji qi- zil ta-roq xo'-roz.
Du- mi ga- jak, yu- rar ser-gak,
Du-mi ga-jak, yu- rar ser-gak, Xo'p ke-lish-gan,
bo'-yi da- roz, Bo-boq xo'-roz...



BIZ SEVGAN TORLI CHOLG'ULAR



Rubob



Dutor



DUTOR BAYOTI

O'ynoqi

Xalq kuyi





SALOM BERGAN BOLALAR

P.Mo'min she'ri **N.Norxo'jayev** musiqasi

Salom bergan bolaning
O'zi odobli,
Kulib turgan yuzlari
Go'yo oftobli.

Naqarot:
Salom berish, bu –
A'lo alomat,
Salom berganlar,
Bo'ling salomat.

Salom bergan bolaning
Darsi doim «besh»,
Maktab, uyda, ko'chada
Yaxshilarga esh.


Naqarot



Nimchorak nota



Butunning sakkizdan biri nimchorak bo'ladi.



Tarvuzni sakkizga bo'lsak, har bir bo'lagi nimchorak bo'ladi.




DAMLI CHOLG'ULAR

BAXTIY ERKATOY

H.Muhammad she'ri

T.Toshmatov musiqasi

Quvnoq



NOTALARNING NOMLANISHI VA BO'LINISHI

Notalarning nomlarini ayting



Notalarning bo'linishi yodingizdami?



Bular qanday cho'zimdagi nota va
tovushlar?



Bu tovush qatorda yetmayotgan to-
vushni ovoz bilan aytib to'ldiring:





MARSH

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Shaxdam



CHILDIRMA



P.Mo'min she'ri

D.Omonullayeva musiqasi



O'zi oyday,
Ziraklari shildir-shildir.
Chalغانingda
Ohanglari xilma-xildir.

Topsang darrov bildirma,
bildirma, bildirma.
Gumbadagum-gumbadagum,
gumbadagum,
Uning nomi – childirma!



MUSIQIY REBUSLAR

Quyidagi soʻzlarni aniqlang:



BOLALAR UCHUN VALS



D.Zokirov musiqasi

Vals tempida





SEHRLI DUNYO

H.Ahmedova she'ri

X.Hasanova musiqasi

Dilda orzular,
Kuylaymiz jo'shib.
Quvonch, shodlikni
Kuylarga qo'shib.
Bolalik guldur
Bu go'zal chamanda.
Yashaymiz yayrab
Eng baxtli Vatanda.

N a q a r o t :



Kuylar olam
Sochib ziyo.
Chorlar har dam
Bu sehrli dunyo.



MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR



1. «DO» notasini toping.





2. Tovush qatori to'g'ri yozilgan javobni toping.

A) do, re, mi, sol, fa, lya, si, do;


B) do, mi, re, fa, sol, lya, si, do;

D) do, re, mi, fa, sol, lya, si, do;

3. «FA» notasini toping.



4. Eng baland tovushni toping:



O'zingiz toping

1. Musiqa asarini qanday tinglash kerak?

A) sekinroq gaplashib tinglash kerak;

B) to'polon qilmasdan tinglash kerak;

D) jim o'tirib, diqqat bilan tinglash kerak.

2. Butun notaning ichida nechta yarim nota bor?

A) 4 ta yarim nota bor;

B) 2 ta yarim nota bor;

D) 6 ta yarim nota bor.

3. Nechta chorak nota bir butun notaga teng?

A) 2 ta chorak nota;

B) 8 ta chorak nota;

D) 4 ta chorak nota.

4. Nechta chorak nota yarim notaga teng?

A) 4 ta chorak nota;

B) 2 ta chorak nota;

D) 8 ta chorak nota.

5. Tovush qatorida qanday nota tushirib qoldirilgan?



O'ynaylik, kuylaylik, qo'shiq aytaylik

OLMA

P.Mo'min she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi



O'ynoqi



CHILDIRMA

P.Mo'min she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi

Sho'x



Gum-ba- da - gum, gum- ba-da-gum, gum- ba-da-gum.

Top- sangdar-rov bil - dir- ma, bil- dir- ma, bil- dir- ma,

Gum-ba- da-gum, gum- ba-da-gum, gum- ba-da-gum.

U- ning no- mi chil-dir- ma

O'QISHNI BILIB OLSANG

M. Yusupov she'ri **M. Dadaboyev** musiqasi

Sho'x

mf

O'qishni bi- lib ol-sang Judayax-shi o'zing-ga.

Bol-dayshira ki- ra- di Har bir aytgan so'-zing-ga.

f

f

Kitoblar ku-lib bo-qar Sho'x, o'ynoqi ko'zingga.

p

Gul-lar po-yan-



ALIFBO BAYRAMI

P. Mo'min she'ri D. Omonullayeva musiqasi

Tez



Tamomlash uchun



NEVARALAR QO'SHIG'I

S.Barnoyev she'ri **N.Norxo'jayev** musiqasi

Tez
f



Bo-g'im bor, gul-zo-rim bor,
Bosh bog'boni bobomlar. Shi-rin so'z-li, be-o-zor Meh-ri-bo-nim


f Na q a r o t :

mo-mom-lar. Ne-va-ra, e- va- ra, che-va- ra- miz,
Biz- lar uy-ning che- va- ri - miz, che-va- ri - miz.

BUG'DOY

R.Tolib she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi

Shoshmasdan



Ek- kan e-dim, ko'- kat bo'l- di, don bo'l- di, don bo'l- di,
Pish- gan- dan so'ng op-poq- qi- na non bo'l- di, non bo'l- di,
E- lim boy, e- lim boy, ni- ma- ga boy?
E- lim boy, e- lim boy, e- kar bug' doy.

MUNDARIJA

Qo'shiq aytish qoidalari	4
Vatanjonim – Vatanim	5
Tovushlarning ifodalanishi	6
Andijon polkasi. Xalq kuyi	7
Qanday tovushlarni bilasiz	8
Nota yo'li	9
Anjir. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi	10
Milliy cholg'ular bilan tanishing	11
Bak, Baka Bum, Bum (Doira usullari). Xalq kuyi	12
Olma. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi	13
Musiqaaning asosi kuydir	14
Lavlagi. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi	15
Musiqiy tovushlar yuqori, past va bir tekis balandlikda bo'ladi	16
Musiqali o'yinlar	17
Quyoning. O'zbek xalq o'yini	18
Skripka kaliti	19
Bir, ikki, uch... R.Tolib she'ri, Nadim Norxo'jayev musiqasi	20
Kuz. N.Ro'zimuhamedov she'ri, S.Abramova musiqasi	21
Vatanimizni madh etamiz	22
Bug'doy. R.Tolib she'ri, D.Omonullayeva musiqasi	23
Tovushlar baland-pastligining zinachalarda ifodalanishi	24
Tovushlar nomini chapdan o'ngga va o'ngdan chapga qarab aytishga o'rganing	25
Tanishing	26
Piano. M.Zaynitdinov she'ri, J.Najmiddinov musiqasi	27
Alifbo bayrami. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi	28
Archa bayram. P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi	29
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	30
Tovushlarning uzun-qisqaligi	31
Norim-norim. O'zbek xalq kuyi	32
Birinchi qor. R.Tolib she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi	33
Qari navo. O'zbek xalq kuyi	34
O'qishni bilib olsang. M.Yusupov she'ri, M.Dadaboyev musiqasi	35
Bastakorlar	36
Tovushlarning nomlanishi va ularning ketma-ketligi	37
Asp bo'laman. O'zbek xalq kuyi	38
Dilomomning qo'shig'i. I.Donish she'ri, D.Omonullayeva musiqasi	39
Yarim nota	40
Do'loncha. Xalq kuyi	41
Nevaralar qo'shig'i. S.Barnoyev she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi	42
Chorak nota	43
Vals. D.Shostakovich musiqasi	44
Boboq xo'roz. P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi	45
Biz sevgan torli cholg'ular	46
Dutor bayoti. Xalq kuyi	47
Salom bergan bolalar. P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi	48
Nimchorak nota	49
Damli cholg'ular	50
Notalarning nomlanishi va bo'linishi	51
Marsh. N.Norxo'jayev musiqasi	52
Childirma. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi	53
Musiqiy rebuslar	54
Bolalar uchun vals. D.Zokirov musiqasi	55
Sehrlı dunyo. H.Ahmedova she'ri, X.Hasanova musiqasi	56
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	57
O'zingiz toping	58
O'ynaylik, kuylaylik, qo'shiq aytaylik	59

HAMIDULLA NURMATOV, **NADIM NORXO'JAYEV**

MUSIQA

1-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan 17-nashri

Muharrir *M. Abralova*
Badiiy muharrir *Sh. Mirfayozov*
Texnik muharrir *X. Hasanova*
Musahhih *Z. Tadjiyeva*
Kompyuterda sahifalovchi *B. Tuxtarov*

Nashriyot litsenziya raqami AI № 290. 11.04.2016.
2019-yil 20-yanvarda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x100^{1/16}.
Kegli 18 shponli. Arial garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.
5,2 shartli bosma toboq. 5,6 nashr tobog'i.
Adadi 533762 nusxa. 20-raqamli buyurtma.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

www.gglit.uz

info@gglit.uz